

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon

Majidova Mehriningor Buxoro davlat Pedagogika institutining 2-bosqich talaba

Annotatsiya

Maqolada tarbiyaga aniq ilmiy ta'rif va allomalarning ta'riflari bilan bir qatorda, misollar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik jarayon, shaxsning shakllanishi, tarbiya masalalari, pedagogik faoliyat

Аннотация

Помимо точного научного определения образования и определений ученых, в статье приведены примеры.

Ключевые слова: педагогический процесс, формирование личности, воспитательные проблемы, педагогическая деятельность

Annotation

In addition to the exact scientific definition of education and the definitions of scholars, examples are given in the article.

Key words: pedagogical process, personality formation, educational issues, pedagogical activity

Tarbiya! Bu so'zni eshitganimizdan ko'z oldimizga insonni ma'nan ,ruhan yuksaklikka yetaklovchi jarayon gavdalanadi. Tarbiya-buyuk ne'mat degan gap bejiz emas. Xuddi shu o'rinda o'tkir qalam sohibi, turkiyzabon mutaffakkir Alisher Navoiy tarbiya haqida quyidagi fikrlarni aytib o'tgan:

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado, oning haqin yuz ganch ila.

Mohir shoirning bu baytidan biror kishi senga bittagina narsani o'rgatsa ham sen uni haqini yuz ganch (boylik) bilan berishing kerak degan g'oya anglashiladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Tarbiyaning milliyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida Tarbiyaning o'rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol Tarbiyaga doyr hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri tayin etish imkonini berdi. shu o'rinda men buyuk mutaffakkirlarimizdan biri Abdulla Avloniyning quyidagi ma'noli satrlarini aytib o'tmasam bo'lmaydi: " Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir." Bu satrlar mag'zida olam, olam ma'no mujassamlashgan. Men barcha insonlarga asl ismi Abu Nasr Muhammad ibn

Muhammad bo‘mish Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asarini maslahat beraman. Bu asarda tarbiya masalasiga alohida e’tibor berilgan. Misol qilib olsak: “Ilk, boshlang‘ich bilimlaridan foydalanib, yangi bilimlarga ega bo‘lish insonga berilgan birinchi imkoniyatdir. Inson shu imkoniyatdan foydalanib, kamolotga yetishadi. Bu baxt-saodat bo‘lib, unga yetishgan odamning ruhi bu dunyoning moddiylikka xos g‘amtashvishlaridan qutulib, ruhiy olam mavjudotlariga yaqinlashadi. Ammo aql sohasida baxt-ga yetishuv faol aql darajasiga ruh qisman aqliy, qisman jismoniy erkin xatti-harakatlar bilan, ammo har qanday erkin, ixtiyoriy xatti-harakatlar bilan emas, balki me’yoriy va aniq, ravshan maqsadli harakatlar, amallar bilan yetishadi (chunki ba’zi erkin, ixtiyoriy harakatlar baxt-saodatga yetishishga to’sqinlik qiladi). Baxt-saodatga yetkazadigan ixtiyoriy ish-harakatlar go‘zal ish-harakatlardir. Bularni keltirib chiqaruvchi xulq va odatlar fazilatlaridir”. Qalami o‘tkir ijodkorlarimizdan biri bo‘lmish Abu -Nasr Forobiy baxt-saodatga erishish fazilatiga ta’lim-tarbiya vositasida yetishish mumkin deb biladi. U o‘z davrining olimi va donishmandi, biroq shohi emas edi, ya’ni g‘oyalarini amalga oshirish uchun iqtisodiy quvvatga, aniqrog‘i hokimiyatga egalik qilmasdi.

Shuningdek har qanday jamiyatda hamisha talim-tarbiyaga ehtiyoj seziladi. Zero, talim-tarbiyasiz barkamol insonni shakllantirib bolmaydi. Barkamol insonlarsiz esa, jamiyat ham taraqqiy etmaydi. Barkamol insonlarni shakllantirishda birinchi prezidentimiz I.A.Karimov foydalanishning o‘rni beqiyosdir. Respublikamiz mustaqillikni qolga kiritgandan song otgan davrda mamlakatimiz kelajagi bulgan yosh avlodni tarbiyalab yetishtirish eng dolzarb muammolardan biri bolib kelmoqda. Shu sababli endilikda pedagogikaning amaliy fan sifatidagi butun imkoniyatlari, qonuniyatlari, metodlari, tarbiyaviy texnologiyalari yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashga xizmat qildirilmoqda. Zotan, birinchi prezidentimiz Islom Karimov ham oz asarlari, nutqlarida pedagogika jamiyat ehtiyojlariga va barkamol avlod tarbiyasiga hamohang fan ekanligini takidladi.

Tarbiyaviy, demak pedagogik faoliyat har bir oilaning, jamiyatning bosh maqsadi bolib, har bir kishining oldida butun umr boyi oz malumotini oshira borish vazifasi turadi. Prezidentimiz hozirgi sharoitda jamiyatni keng kolamda pedagoglashtirish, osib kelayotgan yosh avlodni barkamollik darajasiga yetkazish boyicha pedagogik goyalarni jamiyatning barcha jabhalariga kirib borishi uchun maxsus chora-tadbirlar korish va sharoitlar yaratish zarurligini takidladi. Darhaqiqat osib kelayotgan yosh avlod va ularning kelajakdagi kamolotiga qarab Respublikamiz kelajagini tasavvur qilsa boladi. Kelajak – yoshlarniki, shu sababli ham prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarning talim – tarbiya olishlariga katta etibor bermoqdalar. Xususan shu o‘rinda bola tarbiyasi ham birinchi o‘rinda turadigan masala hisoblanadi. Bu masala eng mashaqqatli vazifalardan biri. Bunday olib qaraganda oson

vazifadek tuyuladi, ammo juda ham ko'p ma'suliyat talab etadigan vazifa. Xalqimizda bir gap yuradi: "Qiz bolani o'stirib, tarbiya berish – xuddi bitta mamlakatni boshqarishdek masaladir". Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich : "Agar mendan sizni nima qiynaydi?" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman."-deydi. Yoki bo'lmasa "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan."-deydi Prezidentimiz.

Har bir odam ikki xil tarbiya oladi: birinchi tarbiyani o'z hayot tajribalarini singdirish yo'li bilan ota-ona beradi, ikkinchisi, yanada muhimrog'ini esa unga hayotning o'zi o'rgatadi. Oilada olingan tarbiya bola hayotida kata ahaniyatga egadir. Bizning o'zbek xalqimizda shunday gap bor: bobo-buvili uyda tarbiya topgan har qanday bolaning tarbiyasi juda ham yaxshi bo'ladi. Chunki qarisi bor uyning tarbiyaviy muhiti ham boshqacha bo'adi. Shuning uchun "Qarisi bor uyning Parisi bor" deb bejizga aytilmaydi.

Shu o'rinda xulosa sifatida fikrlarimni adabiyotshunos olim Abdurauf Fitratning chiroyli jumalari bilan yakunlamoqchiman : "Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o'xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot. 5-sinf. 2-qism (2015, S.Ahmedov, B.Qosimov)
2. <http://islomkarimov.uz/uz/article/millat-xazinasini-boyitgan-mutafakkir>
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarbiya>
4. <https://fayllar.org/prezident-islom-karimov-asarlari--barkamol-avlod-tarbiyasining.html>
5. "Fozil odamlar shahri" Abu Nasr Farobiy/ TOSHKENT. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi .1991.

6. Shonazarovna, A. S., & Sagdullayevich, N. K. (2017). Issue of non-traditional clearing root crops. Austrian Journal of Technical and Natural Sciences, (1-2), 67-69.

7. Saodat, I., & Ma'suda, E. (2023, April). BILINGVIZM TURLARI VA IKKINCHI TIL LEKSIK BAZASI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).